

“Hamkorbank” ATBning “Hamkorbank bilan Uzcardni tanlang” yutuqli aksiyasini joriy etish tartibi va shartlari

1. Umumiy qoidalar

- 1.1 Ushbu tartib “Hamkorbank bilan Uzcardni tanlang” yutuqli aksiyasini (kelgusida Aksiya) joriy etish maqsadida, aksiyani o‘tkazilish shartlari, g‘oliblarni aniqlab, ularga yutuqli sovrinlarni topshirish tartibini belgilaydi.
- 1.2 Aksiya tavakkalchilik asosida tashkil etilgan lotoreya o‘yini emas va ishtirokchilarning mol-mulklari tavakkalchiligiga olib kelmaydi.
- 1.3 Aksiya ishtirokchisi bo‘lish majburiy emas.
- 1.4 Aksiya ishtirokchilaridan unda ishtirok etishlari uchun to‘lovlar olinmaydi. Barcha xarajatlar “Hamkorbank” ATB hisobidan amalga oshiriladi.
- 1.5 Aksiyada ishtirok etish shartlari, aksiyani o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash tartibi bankning hamkorbank.uz sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari orqali e‘lon qilib boriladi.
- 1.6 “Hamkorbank” ATB mazkur tartib shartlarini o‘zgartirish huquqiga ega. Tartibga o‘zgartirish kiritilgan taqdirda, 3 kun muddat ichida hamkorbank.uz saytining yangiliklar qismida e‘lon qilinadi.

2. Aksiya o‘tkazish muddati va manzili

- 2.1 Aksiyani o‘tkazish hududi: O‘zbekiston Respublikasi.
- 2.2 Aksiya o‘tkazish sanasi: 2024 yil 1- oktyabrdan 2024 yil 30-dekabrga qadar.
- 2.3 Aksiya 3 bosqichdan iborat:
 - 1-bosqich: 2024 yil 1- oktyabrdan 2024 yil 31-oktyabrgacha;
 - 2-bosqich: 2024 yil 1 - noyabrdan 2024 yil 30-noyabrgacha;
 - 3-bosqich: 2024 yil 1-dekabrdan 2024 yil 30-dekabrgacha;

2. Aksiyada ishtirok etish shartlari

- 3.1 Aksiyada 2024-yil 1-oktyabrdan 2024-yil 30-dekabr kuniga qadar Hamkorbank Uzcard yoki Uzcard Unionpay kartasini rasmiylashtirib, 100 000 (bir yuz ming) so‘mdan yuqori bo‘lgan har qanday operatsiyani amalga oshirgan bank mijozlari ishtirok etishlari mumkin. Qo‘shimcha amalga oshirilgan har qanday 100 000 (bir yuz ming) so‘mdan yuqori bo‘lgan operatsiyalar yana 1 (bir) imkoniyat beradi.
- 3.2 Ushbu yutuqli aksiyada 18 (O‘n sakkiz) yosh va undan katta yoshdagi O‘zbekiston Respublikasi rezident yoki norezident fuqarolar qatnashishlari mumkin.
- 3.3 Har bir fuqaro aksiyaning butun davri mobaynida bir necha ishtirokchi sifatida qatnashish imkoniyatiga ega.
- 3.4 Aksiya ishtirokchisiga aylanish uchun fuqaro “Hamkorbank” ATBning istalgan Uzcard yoki Uzcard Unionpay kartasini rasmiylashtirib, undan kamida 100 000 (yuz ming) so‘m miqdoridagi tranzaksiyani amalga oshirishi kerak. Keyingi amalga oshirilgan 100 000 (yuz ming) so‘mdan yuqori bo‘lgan har qanday operatsiya o‘yinda ishtirok etish uchun yana bir imkoniyat beradi.
- 3.6 Barcha ishtirokchilar aksiyaning har bir bosqichida ishtirok etishi mumkin. Sovg‘ani bir marotaba yutib olgan ishtirokchi esa, keyingi bosqich ishtirokchilar ro‘yxatidan olib tashlanadi.
- 3.5 Aksiyaning har bir bosqichida faqat shu davrda tartibning 3.4 bandini shartlarini bajargan ishtirokchilar qatnashishlari mumkin.

3.6 Aksiyada “Hamkorbank” ATBning barcha xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

4. Ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari

- 4.1 Aksiyada ixtiyoriy ravishda qatnashish mumkin.
- 4.2 Aksiya natijalariga ko‘ra, g‘olib bo‘lgan ishtirokchi tegishli ravishda yutib olgan sovg‘asini olishi mumkin.
- 4.3 Ishtirokchilardan aksiya g‘olib bo‘lgan shaxslar hech qanday to‘lovlarsiz va mukofotlarsiz o‘zlarining ismi-shariflari va suratlarini reklama qilish uchun o‘z roziliklarini beradilar.
- 4.4 Aksiya g‘oliblari sovg‘alarni olib ketish xarajatlarini o‘zlari tomonidan amalga oshiradilar.
- 4.5 Aksiya g‘olibi e‘lon qilingan kundan boshlab, 3 (uch) oy davomida bankka qayta aloqaga chiqib sovg‘a yutug‘ini olib ketmasa, Bank aksiya g‘olibiga sovg‘a taqdim etmaslik huquqiga ega.

5. Aksiya yutuq fondi

- 5.1 Aksiya davomida quyidagi yutuqlar sovrin fondi sifatida ishtirok etadi:
 - 9 (to‘qqiz) dona iPhone 15 PRO (128 GB / Black) telefonlari;
- 5.2 Sovg‘alar g‘oliblar aniqlangan sanadan keyin 15 (O‘n besh) ish kuni davomida taqdim etiladi.
- 5.3 Har bir g‘olibga yuqoridagi sovg‘alardan birini yangi va but holatda hamda tovar yetkazib beruvchining kafolati bilan taqdim etiladi.
- 5.4 G‘oliblarga yaroqsiz holdagi sovg‘alar berishga yo‘l qo‘yilmaydi.
- 5.5 Yutib olingan sovg‘a uchun barcha soliq va majburiy to‘lovlar Hamkorbank tomonidan qoplab beriladi.

6. Aksiya g‘oliblarini aniqlash va taqdirlash

- 6.1 Aksiya g‘oliblarini aniqlash uchun Boshqaruv raisining buyrug‘iga asosan, maxsus komissiya tashkil etiladi. Komissiya tarkibi komissiya raisi va a‘zolaridan iborat bo‘ladi.
- 6.2 Maxsus komissiya raisi Boshqaruv raisi o‘rinbosari, a‘zolari esa biznes va nazorat yo‘nalishidagi departamentlarning 5 nafar xodimlaridan iborat bo‘ladi.
- 6.3 Aksiya g‘oliblarini aniqlash maxsus komissiya ishtirokida amalga oshiriladi va shaffoflikni ta‘minlash uchun bank tomonidan tashqi mustaqil ishtirokchilar jalb etilishi mumkin.
- 6.4 Aksiya shartlarini bajargan ishtirokchilar ro‘yxati IABS dasturidan olingan hisobotga asosan har bir bosqich muddatiga asosan shakllantiriladi. Mijozlar ismi-shariflari alfavit tartibida saralab olinadi va har bir ishtirokchiga alohida tartib raqam beriladi.
- 6.5 Har bir bosqich bo‘yicha g‘olib aniqlash jarayoni o‘sha bosqich o‘tkaziladigan oying 25 sanasiga qadar o‘tkaziladi.
- 6.6 G‘oliblarni aniqlash har bir ishtirokchiga berilgan tartib raqam orqali **random.org** yoki shu kabi tasodifiy tanlash generatori orqali amalga oshiriladi.
- 6.7 Aksiyada g‘oliblarini aniqlash jarayoni ochiq va haqqoniy tarzda o‘tkazilishini ta‘minlash uchun aksiya o‘tkazish jarayonini bankning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida (www.instagram.com/hamkorbank_jscb) on-layn translatsiya qilinadi.
- 6.8 Aksiya g‘oliblari aniqlangandan so‘ng, g‘oliblarni bank veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e‘lon qilinadi.
- 6.9 Aksiya g‘oliblariga sovg‘alarni bank plastik kartasi ochilgan “Hamkorbank” ATB filiallari orqali aksiya g‘oliblari aniqlangan kundan so‘ng 15 ish kunida tantanali

- ravishda taqdim etiladi.
- 6.10 Bank va aksiya ishtirokchilari o'rtasida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo'li bilan hal etiladi.
 - 6.11 Muzokaralar orqali hal etilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.
 - 6.12 Yutuqlar g'oliblarga yoki ularning qonuniy vakillariga (notarial tasdiqlangan) o'zlariga yaqin bank filiallari yoki bank tomonidan e'lon qilingan bank manzil orqali taqdim etiladi.
 - 6.13 Yutuqlar g'oliblarga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan topshirish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan taqdim etiladi.
 - 6.14 G'oliblar yutuqni olish chog'ida o'zlarining shaxsini tasdiklovchi hujjatlari va daromad solig'ini to'lash majburiyatini olgan holda amalga oshiriladi.
 - 6.15 Yutuqlarini filiallarda ko'pchilikni taklif etgan holda tantanali ravishda taqdim etiladi va ommaviy tarzda e'lon qilinishi mumkin.

7. Yakuniy qoidalar

- 7.1 Bank aksiya g'oliblarini hamkorbank.uz sayti orqali tanishish imkoniyati bo'lmagan ishtirokchilarga xabar berish majburiyatini olmaydi.
- 7.2 Bank fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda majburiyatlarni bajarish bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
- 7.3 Bankning yuridik manzili: Andijon viloyati, Andijon shahri, Bobur shoh kuchasi, 85-uy.
- 7.4 Aksiya o'tkazish shart-qoidalarini bo'yicha batafsil ma'lumotni hamkorbank.uz sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy saxifalari orqali va bank Aloqa markazining 1256 qisqa raqamlarga murojaat qilish orqali olinishi mumkin.
- 7.5 Aksiyada ishtirok etuvchi mijozlar ushbu shart-qoidalarini qabul qilishlari lozim.